



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА**
**Научно-практический
электронный журнал**

INNOVATIVE ECONOMY
**Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

**Small business and private
entrepreneurship**

**Малый бизнес и частное
предпринимательство**



YASHIL MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINING KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Kodirov Javlonbek Nematullayevich

ВЛИЯНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЗЕЛЁНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ НА РАЗВИТИЕ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

Кодиров Жавлонбек Нёматуллаевич

THE IMPACT OF GREEN FINANCING MECHANISMS ON THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Kodirov Javlonbek Nematullayevich

Received: March 2, 2026 Revised: March 6, 2026 Accepted: March 12, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada yashil moliyalashtirish mexanizmlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashil kreditlar, ekologik investitsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarning ekologik innovatsiyalarni joriy etishdagi roli o'rganilgan. Shuningdek, yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati asoslangan. Natijalar ushbu instrumentlardan samarali foydalanish kichik biznesning raqobatbardoshligi va ekologik barqarorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yashil moliyalashtirish, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar, kichik biznes, yashil iqtisodiyot, ekologik investitsiyalar, barqaror rivojlanish.

Аннотация: В статье анализируется влияние механизмов зелёного финансирования на развитие малого бизнеса и частного предпринимательства. Рассматривается роль зелёных кредитов, инвестиций и других инструментов во внедрении экологических инноваций. Обосновывается значимость финансовой поддержки зелёных технологий. Результаты показывают, что их эффективное использование повышает конкурентоспособность бизнеса и способствует экологической устойчивости.

Ключевые слова: зелёное финансирование, зелёные кредиты, зелёные облигации, малый бизнес, зелёная экономика, экологические инвестиции, устойчивое развитие.

Abstract: This article analyzes the impact of green financing mechanisms on the development of small businesses and private entrepreneurship. It examines the role of green loans, investments, and other financial instruments in promoting ecological innovations. The study highlights the importance of financial support for green technologies. The results show that effective use of green financing improves competitiveness, energy efficiency, and environmental sustainability.

Key words: green financing, green loans, green bonds, small business, green economy, environmental investments, sustainable development.

■ KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida ekologik muammolarni hal etish, resurslardan samarali foydalanish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda atrof-muhitning ifloslanishi iqtisodiy faoliyatni yangi yondashuvlar asosida tashkil etishni talab qilmoqda. [1] Shu nuqtai nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy rivojlanishni ekologik

barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim strategik yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.[2]

Yashil iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda moliyaviy resurslarning ahamiyati alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, ekologik innovatsiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish jarayonida moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari muhim rol o'ynaydi. [3] Shu sababli so'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yashil



moliyalashtirish mexanizmlari keng rivojlanib bormoqda.

Ilmiy tadqiqotlarda yashil moliyalashtirish instrumentlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar hamda ekologik investitsiyalar korxonalarda energiya samaradorligini oshirish, ekologik innovatsiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini ta'minlash imkonini beradi. [4] Bu esa o'z navbatida iqtisodiy subyektlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi yashil moliyalashtirish mexanizmlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish hamda ushbu mexanizmlarning iqtisodiy samaradorligini baholashdan iborat.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot va yashil moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilmoqda. Xususan, yashil moliyalashtirish ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish hamda qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim instrument sifatida qaraladi. [3] Tadqiqotlarda yashil moliyalashtirish orqali ekologik loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Xorijiy olimlar Taghizadeh-Hesary va Yoshino tadqiqotlarida qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini rivojlantirishda yashil moliyalashtirish muhim ahamiyat kasb etishi, ayniqsa uzoq muddatli moliyaviy resurslarning etishmasligi ushbu sohaning asosiy muammolaridan biri ekanligi ko'rsatib o'tilgan. [4] Mualliflarning fikriga ko'ra, yashil kreditlar, obligatsiyalar va maxsus investitsiya fondlari ekologik loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham yashil iqtisodiyot va yashil moliyalashtirish masalalari keng o'rganilmoqda. Masalan, A. Seitov tadqiqotlarida O'zbekiston iqtisodiyotida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida energiya samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik innovatsiyalarni joriy etish muhim yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. [5] Tadqiqotda yashil iqtisodiyot barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot konsepsiyasini rivojlantirish masalalari qator tadqiqotlarda ham ko'rib chiqilgan bo'lib, ularda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik investitsiyalarni kengaytirish barqaror rivojlanishning muhim omillari sifatida baholanadi. [6]

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish mexanizmlari ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etish hamda kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil moliyalashtirish mexanizmlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rivojlanishiga ta'sirini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda global moliya bozorlarida yashil moliyalashtirish instrumentlari jadal rivojlanmoqda. Xususan, yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirishning muhim manbalaridan biriga aylangan. Climate Bonds Initiative ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda jahon bo'yicha yashil obligatsiyalar emissiyasi hajmi taxminan 447 milliard AQSh dollarini tashkil etgan, bu esa ushbu moliyaviy instrumentlarga bo'lgan talabning global miqyosda ortib borayotganini ko'rsatadi. [7]

Shuningdek, global energiya transformatsiyasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi ham sezilarli darajada oshib bormoqda. BloombergNEF hisobotlariga ko'ra, 2024 yilda energiya transformatsiyasiga yo'naltirilgan global investitsiyalar hajmi 2.1 trillion AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu investitsiyalarning katta qismi qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan.

1-jadval

2020-2024 yillarda jahon bo'yicha yashil obligatsiyalar emissiyasi hajmi


Ko'rsatkich	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Emissiya hajmi (mlrd AQSh dollari)	290	522	487	576	447



Izoh: *Climate Bonds Initiative* ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda yashil obligatsiyalar bozori izchil o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Xususan, 2020 yilda

emissiya hajmi 290 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilda ushbu ko'rsatkich 522 milliard dollarga etib, rekord darajaga chiqqan. Keyingi yillarda esa yashil obligatsiyalar bozori barqaror rivojlanish tendensiyasini saqlab qolmoqda.



1-rasm. Yashil obligatsiyalar emissiyasi hajmining o'zgarish dinamikasi (2020-2024)

Mazkur diagramma yashil moliyalashtirish instrumentlarining global moliya bozorlarida o'zgaruvchan dinamikada rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Biroq yashil moliyalashtirish mexanizmlarining ahamiyati nafaqat global investitsiya hajmining ortishida, balki ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirida ham namoyon bo'ladi. Xususan, yashil kreditlar va ekologik investitsiyalar kichik biznes subyektlarida energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish korxonalarda energiya xarajatlarini o'rtacha 20-30 foizgacha kamaytirish imkonini beradi. Bu esa kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish tannaxsini pasaytirish hamda ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Hariandy Hasbi tomonidan olib borilgan empirik tadqiqot natijalariga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish hamda yashil moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish kichik va o'rta biznes korxonalarining barqaror rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda yashil moliyalashtirish va ekologik boshqaruv amaliyotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyatsiya koeffitsienti, ya'ni $r = 0,62$ darajasida aniqlangan. [8] Mazkur ko'rsatkich statistik tahlil nuqtai nazaridan o'rta darajadan yuqori ijobiy bog'liqlik mavjudligini anglatadi. Ya'ni yashil moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish darajasi ortgani sari korxonalarda ekologik boshqaruv amaliyotlari va energiya samaradorligi ko'rsatkichlari ham oshib borishi kuzatiladi.

Boshqa bir tadqiqotda Taghizadeh-Hesary va Yoshino yashil moliyalashtirish mexanizmlarining investitsiya jarayonlariga ta'sirini tahlil qilgan. Ularning

fikriga ko'ra, yashil kreditlar, yashil obligatsiyalar hamda boshqa moliyaviy instrumentlar kichik va o'rta biznes korxonalarining ekologik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot natijalarida yashil moliyalashtirish instrumentlari qo'llanilgan loyihalarda energiya samaradorligi ko'rsatkichlari **10-20 foizgacha oshishi** mumkinligi qayd etilgan. Bu esa yashil investitsiyalar korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. [9]

Zhang va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda esa yashil moliyalashtirish va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil moliya instrumentlarining rivojlanishi ekologik innovatsiyalarni joriy etishni tezlashtirib, energiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalarida yashil moliyalashtirish darajasining oshishi korxonalarda ekologik texnologiyalarni joriy etish ko'rsatkichlarini taxminan 15-18 foizga oshirishi aniqlangan. [10]

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish hamda ekologik investitsiyalarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mamlakatda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish bo'yicha qator yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etishni rag'batlantirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun quyosh panellarini o'rnatish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha qator moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilgan. Natijada, kichik biznes subyektlarida energiya samaradorligini oshirish hamda energiya xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari kengaymoqda.

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish hajmi

№	Yil	Investitsiya hajmi (mlrd AQSh dollari)	Asosiy yo'nalish
1	2020	1,0	Quyosh energetikasi loyihalari
2	2021	1,4	Quyosh va shamol energetikasi
3	2022	2,1	Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari
4	2023	2,7	Yirik quyosh va shamol stansiyalari
5	2024	3,0	Yashil energetika va energetika infratuzilmasi

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, International Energy Agency va ochiq statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, 2020 yilda ushbu investitsiyalar hajmi 1 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 3 milliard AQSh dollariga etgan. Bu esa mamlakatda yashil moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanishi hamda ekologik loyihalarni moliyalashtirish hajmining kengayib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda yashil energetika loyihalarining moliyalashtirilishi asosan xalqaro moliya institutlari, jumladan Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Yuqoridagi tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil moliyalashtirish mexanizmlari kichik biznes korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion rivojlanishini rag'batlantirish, energiya samaradorligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari so'nggi yillarda global moliya tizimida yashil moliyalashtirish instrumentlari jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Xususan, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar va boshqa ekologik investitsiya instrumentlari qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirishda muhim manbaga aylanmoqda. Ular ekologik barqarorlikni ta'minlash, energiya samaradorligini oshirish va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda.

Tadqiqot natijalari yashil moliyalashtirish mexanizmlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga ijobiy ta'sirini ham tasdiqlaydi. Qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish

energiya xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va korxonalar barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa ularning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o'tish doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa yashil moliyalashtirish mexanizmlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- kichik biznes uchun yashil kreditlash va imtiyozli moliyalashtirish dasturlarini kengaytirish;
- tijorat banklarida ekologik loyihalar uchun maxsus kredit mahsulotlarini rivojlantirish;
- qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etuvchilar uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalarni takomillashtirish;
- yashil iqtisodiyot bo'yicha axborot va konsalting xizmatlarini rivojlantirish.

Umuman olganda, yashil moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish kichik biznesning innovatsion rivojlanishi, energiya samaradorligi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Kodirov Javlonbek Nematullayevich Namangan Davlat texnika universiteti tayanch doktoranti / Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич, базовый докторант Наманганского государственного технического университета / Kodirov Javlonbek Nematullayevich, PhD student of Namangan State Technical University
E-mail: kodirovj972@gmail.com
ORCID: 0009-0001-2350-3618

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNEP. Green Economy Report. – Nairobi.: United Nations Environment Programme, 2019.



2. M Sachs J., Woo W., Yoshino N., Taghizadeh-Hesary F. Handbook of Green Finance: Energy Security and Sustainable Development. – Singapore.: Springer, 2019
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “2019-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida” PQ-4477-son qarori. – Toshkent, 2019.
4. Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. Sustainable solutions for green financing and investment in renewable energy projects. – Energies, 2020.
5. Seitov A. Transition of Uzbekistan to sustainable environmental development based on the green economy concept. – E3S Web of Conferences, 2024.
6. Akhunova Sh. Sustainable economic expansion: unlocking Uzbekistan’s green economy potential. – Web of Humanities Journal, 2024.
7. Climate Bonds Initiative. Sustainable Debt Global Market Summary 2024. – London.: Climate Bonds Initiative. 2024.
8. BloombergNEF. Energy Transition Investment Trends 2025. – New York.: Bloomberg Finance L.P. 2025.
9. Hasbi H. The Impact of Renewable Energy and Green Finance on SMEs Sustainability through Environmental Management Practices. 2025.
10. Taghizadeh-Hesary F., Yoshino N. The Way to Induce Private Participation in Green Finance and Investment. – Singapore.: Springer. 2019.
11. Zhang D., Mohsin M., Rasheed A.K., et al. Public Spending and Green Economic Growth in BRI Region: Mediating Role of Green Finance. – Basel.: MDPI Sustainability. 2021.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz